

## QORAMOLLARNI OZIQLANTIRISH USULLARI VA ME'YORLARI.

**Turoпова Shahnoza Olim qizi**  
**Shomurodov Jasur Òktamovich**

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qoramollarning oziqlantirish o'sish va ulg'ayishini hisoblash va me'yorlash hamda bo'g'oz sigirlarni oziqlantirishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchilar, tana indeksleri, bo'g'oz sigirlar, sersut sigir, urg'ochi buqa.*

**Qoramol** —juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi hayvonlar. Miloddan bir necha ming yil avval Yevropa, Osiyo, Amerikada tarqalgan. Xonaki Qoramol yovvoyi buqa turi dan kelib chiqqan. Yavvoyi buqalarning oxirgi ajdodlari 17-asr boshlarida qirilib ketgan. Qoramol 8 ming yil ilgari Xindistonda, so'ng G'arbiy Osiyo, O'rta dengiz, O'rta Yevropada xonakilashtirilgan Mahsuldorlik turlariga qarab sut, sut-go'sht va go'sht sut yo'nalishidagi zotlarga ajratiladi. Oshqozoni to'rt kamerali, yelini to'rt so'rg'ichli. sigirlar 20 (35), buqalar 15-20 yil yashaydi. Sut yo'nalishidagi sigirlardan xo'jaliklarda 12-13 yil, zotli buqalardan 5-10 yil foydalaniladi. Qoramol 5 yoshgacha (ayrim sekin o'sadiganlari 6—7 yoshgacha) o'sadi. Urg'ochi buzoq 7-9, erkagi 14-18 oyligida jinsiy yetiladi. Sigirlarning bo'gozlik davri 285 kun. Sigir, odatda, bittadan buzoqlaydi, egizaklari kam uchraydi. Urg'ochi buzoq zotiga qarab 18—45, ba'zan 50 kg gacha, erkak buzoq urg'ochi buzoqdan 1—3 kg ortiq tug'iladi. Sigirlari 200-600, buqalari 300—900 kg. Qoramol mahsuldorligi uning zoti va boqilishiga bog'liq. Sersut sigirlardan bir kunda 8-40 l, bir yilda o'rtacha 3500-4000 kg (17000 kg gacha), yog'liligi 3,6-4% bo'lgan sut sog'ib olinadi. Sigirlarning sersutligiga qarab 1 kg sut uchun 0,8-1.3 ozuqa birligi sarflanadi. Sog'im davri 280-320 kun. Go'sht uchun boqiladigan zotlaridan sog'im davrida 1000 kg gacha sut sog'ib olinadi. Tez yetiladigan zotlardan to'rtinchi, kech yetiladiganlaridan beshinchi-oltinchi, ba'zan yettinchi sog'im davrida eng ko'p sut sog'ib olinadi. sigir suti odam uchun qimmatli oziq-ovqat mahsuloti oziq-ovqat sanoati uchun muhim xomashyo (tvorog, pishloq va boshqalar). Go'sht uchun boqiladigan zotlarda go'sht mahsuldorligi yuqori (go'sht chiqimi 48—70%), 1,5—2 yoshli buzoqlarning tirik vazni 400-450 kg. Mol go'shti yuqori kaloriyali, parhez oziq-ovqat mahsuloti. Terisidan turli navli charm, chiqindilari qayta ishlanib, go'sht-suyak va qon uni, endokrin preparatlari, yelim, sovun va boshqa tayyorlanadi. Buqa va ho'kizlardan ish hayvoni sifatida foydalaniladi. Dehqonchilik uchun muhim bo'lgan organik o'g'it (go'ng) olinadi. Bir shartli bosh mol bir yilda 10 t go'ng beradi. Boqish sharoitiga yaxshi moslashadi, ko'p hajmdagi ozuqani, dag'al o'simliklarni ham tez hazm qiladi. U yaylov o'tlari, silos, ildiz meva, aralash yem, shuningdek, protein, mineral va vitaminli ozuqalar bilan boqiladi. Vazni, mahsuldorligi, fiziologik holati, oziqlanishi, protein, mineral moddalar va vitaminlarni hazm qilishiga qarab oziqlanish normasi belgilanadi. Bog'lab yaylovlarda boqiladi. O'zbekistonda

yetishtirilayotgan sutning 98- 99% va go'shtning 63-65%. Barcha toifadagi xo'jaliklarda urchitilayotgan Qoramollar soni 5873,9 ming boshni, shu jumladan, sigirlar 2556,7 ming boshni tashkil qildi. O'zbekistonda boqiladigan asosiy zotlar: qizilcho'l, bushuyev, qora-ola va shvits zotlari, shuningdek qisman jaydari va zebusimon sigir zotlari ham uchraydi. Go'sht inson organizmi uchun eng muhim oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning tarkibida inson faoliyati uchun zarur bo'lgan yengil hazm bo'ladigan quruq modda hayvonlar turiga qarab 35-55 % gacha oqsillar, 10-20 % gacha yog'lar, 8-45 % gacha hamda 1-5 foiz gacha mineral moddalar mavjud. Bundan tashqari A, D va V guruh vitaminlari uchraydi. Bir kilogram go'sht o'rtacha 1500-3000 kilokaloriya beradi (hayvonlar turiga qarab). Respublikamizda aholi iste'mol qiladigan go'shtning eng asosiy qismini 60 % dan ko'prog'ini qoramol go'shti tashkil qiladi. Qolgan qismini boshqa chorva hayvonlari qo'y, echki, parranda, ot va boshqalar. Hayvonlarning go'sht mahsuldorligi miqdor (son) va sifat ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Go'sht mahsuldorligining miqdor (son) ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi. Tirik vazni, so'yim og'irligi (so'yim vazni), so'yim chiqimi. Hayvonlarning tirik vazni ularni so'yishdan oldin 12 soat och qoldirilgandan keyin tarozida tortib ko'rish yordamida aniqlanadi. So'yim og'irligi (so'yim massasi) deb so'yilgan hayvonning nimta go'shti va ichki yog'ining yig'indisiga aytiladi. So'yim og'irligiga so'yilgan hayvonning boshi, terisi, ichki ovqat hazm qilish organlari, dumi va oyoqlarining tizzasidan pastki qismi kirmaydi. So'yim chiqimi deb so'yim og'irligining so'yishdan oldingi tirik vazniga nisbatining foizdagi ifodasiga aytiladi. Go'sht mahsuldorligining sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi. Nimalangan go'shtning morfologik tarkibi, ya'ni muskul, pay, suyak va biriktiruvchi to'qimalarning o'zaro nisbati 1, 2, 3 navli go'shtning chiqimi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida so'yilgan chorva hayvonlarining go'shti birinchi, ikkinchi va uchinchi navlarga ajratilgan holda aholiga sotiladi. Go'shtning energetik to'yimliliigi. Mollarning tez etiluvchanligi ya'ni bir kilogram o'sishi uchun sarflangan oziqa miqdori. Go'shtning oqsil sifat ko'rsatkichi (OSK) ushbu ko'rsatkich muskul to'qimalari tarkibidagi to'liq qiymatli oqsil tarkibiga kiruvchi triptofan aminokislotasining pay to'qimalari tarkibidagi to'liq qiymatsiz oqsil tarkibiga kiruvchi oksipirolinga nisbati bilan aniqlanadi. Hayvonlarning go'sht mahsuldorligi baholashda paypaslab ko'rish (tananing turli yog' to'planadigan qismlarini) ushlab ko'rish, tana tuzilishi indekslarini hisoblash orqali ham hayvonlarning go'sht mahsuldorligiga baho berish mumkin. Lekin ushbu usullar hayvonlarning go'sht mahsuldorligini baholashda aniq ma'lumot bermaydi. Bulardan tashqari hayvonlarning go'sht mahsuldorligiga baho berishda ya'ni tirik hayvonlarning muskul va yog' qatlamini o'lchashda har xil zamonaviy jihozlardan ham foydalaniladi. Masalan, cho'chqalarning teri osti yog' qatlamini aniqlash uchun linimetr asbobidan foydalaniladi. Linimetr asbobi ikkita qaramaqarshi zondan iborat bo'lib, ular elektr batareyalariga ulangan bo'ladi. Zondlar cho'chqalar teri ostiga kiritiladi va yog' to'qimalaridan o'tgan zond muskul to'qimalariga etganda votlimetr ko'rsatkichi teri osti qatlamida necha sm yog' to'planganligini ko'rsatadi. Qoramollarning go'sht mahsuldorligini baholashda "Polnomiomer" asbobidan ham foydalaniladi. Fan va texnikaning taraqqiy etishi chorva hayvonlarining go'sht

mahsuldorligini sifatini baholashda ham bir qancha qulayliklarni olib kelmoqda. Keyingi yillarda go'sht mahsuldorligining sifatini baholashda ultratovush to'lqinlaridan keng foydalanilmoqda. Ultratovush bu inson qulog'i ilg'amaydigan to'lqinlarni ham aniqlaydigan jihoz hisoblanadi. Ultratovush to'lqinlarining o'tish tezligi o'rganilayotgan buyum jihoz organ to'qimalarning zichligiga bog'liq bo'ladi (teri yog' qatlami, muskul to'qimasi, suyak to'qimasi va boshqalar). Hozirgi paytda qo'llanilayotgan ultratovush asboblari (jhozlari) yordamida hayvon tanasining barcha qismlaridagi yog', muskul, suyak va biriktiruvchi to'qimalarni o'rganish mumkin. Hayvonlar go'sht muskulining sifat ko'rsatgichlarini baholashda quyidagi ultratovush asboblaridan foydalaniladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan barcha ultratovush jihozlari yordamida go'sht mahsuldorligining sifat ko'rsatgichlarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar hayvonlar tiriklik davrida oldindan o'rganishga xizmat qiladi. Lekin go'sht mahsuldorligini baholashning eng to'g'ri va maqbul yo'li so'yim massasi hamda so'yim chiqimini aniqlash usuli hisoblanadi. Qoramollar kavsh qaytaruvchi hayvon bo'lgani uchun hajmli, tarkibida kletchatka moddasi ko'p oziqalardan samarali foydalanib arzon va sifatli mahsulot beradi. Mamlakatimizda sut, sut-go'sht va kam go'sht yo'nalishdagi qoramollar urchitiladi, ularning mahsuldorligi asosan oziqlantirish darajasiga bog'liq. Sigirlarning sut mahsuldorligi ularning oziqlantirish, saqlash va o'stirish sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Mashhur sut yo'nalishidagi zotga mansub sigirlar (golshtin) har 100 kg tirik vazniga 1000 kg, rekordchi sigirlar esa 3000 kg gacha sut berish qobiliyatiga ega. 6000 kg sut beradigan sigir o'rtacha laktasiyasi davomida sut bilan 15000 Mdj energiya, 760 kg dan ko'proq quruq moddalar, shu jumladan 200-210 kg oqsil, 210-230 kg yog', 270-290 kg sut qandi va 35 kg ko'prok mineral moddalarni ajratib chiqaradi. Shu boisdan sigirlarni oziqlantirishda ushbu raqamlarni inobatga olish kerak. Qoramollarni oziqlantirish me'yorlari ularning tirik vazni, yoshi, mahsuldorlik darajasi va fiziologik holatiga qarab o'rnatiladi. Keyingi paytlarda qoramollar ratsionlarini nazorat qilish 6 ko'rsatkichdan 24 ko'rsatgichgacha ko'paytirilishi, qoramollarni barcha to'yimli moddalar, vitaminlar va mineral moddalar bilan ta'minlanishini yaxshilaydi, ularning mahsuldorligiga ijobiy ta'sir qiladi. Bo'g'oz sigirlarni to'laqiyatli oziqlantirish sog'lom, yirik buzoq olish va navbatdagi laktasiyada yuqori sut mahsuldorligini ta'minlaydi. Sigirlarning bo'g'ozlik davrida to'yimli moddalarga bo'lgan talabi ortadi, ya'ni modda almashinuvi kuchayadi, va homila shakllanadi. Bo'g'ozlik bosqichlarida homilaning rivojlanishi bir xilda kechmaydi. 3 oylik homila vazni 20-30 g bo'lib, asosiy ratsion hisobidan o'sishi ta'minlanishi yoki 5% energiya va to'yimli moddalarning ko'paytirish mumkin. Bo'g'ozlikning dastlabki davrida sigirlarni protein, vitamin va mineral moddalar bilan me'yorlar darajasida ta'minlash kerak, aks holda homilani surilib ketish hollari uchraydi. Bo'g'ozlikni 6 oyiga kelib homila 5-6 kg vazniga ega bo'lib, energiya va to'yimli moddalarga talab 15% ga ortishi talab etiladi. Ayniqsa homila bo'g'ozlikning oxirgi 2 oyida jadal o'sadi (kuniga 300-400 g), shuning uchun sigirlar sutdan chiqarilib, dam (60 kun) beriladi. Shu davr ichida sigirlar laktasiya davomida yo'qotgan - sut bilan chiqarib yuborgan zaxira to'yimli modda to'plash va homilani me'yorda o'sishini ta'minlash kerak. Bo'g'oz sigirlarni sutdan chiqarish xo'jalikda qabul

qilingan texnologiya asosida ratsionni to'yimligi va sog'implar soni kamaytirilib, asta-sekin sog'ish to'xtatiladi. Bo'g'oz sigirlarning dam olish davrining birinchi 10 kunligida ratsion to'yimligi biroz kamaytiriladi ikkinchi 10 kunlikda to'liq ratsion, 3-4-10 kunlikda ratsion to'yimligi 20% kuchaytiriladi. Bo'g'ozlik davrida sigirlar vazni o'rtacha 10-15% sigirlarda ko'proq ortadi, shu bois oziqlantirishda semizlik darajasi inobatga olish foydadan holi emas yoki har bir bo'g'oz sigir tug'ish oldidan albatta o'rta semizlikda bo'lishi kerak. Oriq bo'g'oz sigirlarning 1 kg vazni ortishi uchun 5 birligi va 500 g hazmlanuvchi protein qo'shib berish kerak. Bo'g'oz sigirlarni alohida guruhlarda, quruq, issiq, to'shama to'shalgan binolarda saqlab, ularga albatta yayrash maydonchalari ajratiladi, qo'shimcha har kuni 2-3 soat sayr qildirish kerak. Faol haydab sayr qildirilgan (2-3 km) bo'g'oz sigirlar homilasi yaxshi rivojlanib, yelin bez to'qimalariga ijobiy ta'sir etib, sigir oson tug'adi. Gunajinlarni oziqlantirishda yuqoridagi talablardan tashqari, ularning o'sishini ta'minlashni ham inobatga olish kerak yoki shu davrda ularning kunlik o'sishi 500-600 g bo'lishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Akmalxonov Sh, Ashirov M Qoramolchilikda nasilchilik I shining vazifalari "Zooveteraniriya".
2. Nosirov U.N, Qoramolchilik Darslik Toshkent "O'zbekiston milliy entikilopedyasi" Davlat ilmiy nashriyoti -2001.
3. Sobirov P, Kaxorov A, Dòstqulov S Chorva mollarini urchitish.Samarqand 2003.